



VOKAL SAN'ATI. AN'ANAVIY HONANDALIK YO'NALISHI BO'LAJAK MUTAHASISLARINING UMUMMILLIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH TEXNALOGIYALARI

Akbarova Mohigul Gulomovna ¹, Todjibayev Dilmurod ²

^{1,2} Guliston Davlat Universiteti San'atshunoslik fakulteti "Musiqqa ta'lim"
kafedrası o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6625671>

ARTICLE INFO

Received: 28th May 2022
Accepted: 02nd June 2022
Online: 05th June 2022

KEY WORDS

Kompetensiya, ijrochi,
ustoz –shogird an'analari,
stairs, texnologiya,
umummilliy qadryatlar.

ABSTRACT

Ushbu maqolada Vokal san'ati. An'anaviy honanadalik yo'nalishi bo'lajak mutahasislarining umummiy kompetensiyalari, malaka talablari, va kompetensiyalarini rivojlantiruvchi "Stairs" texnologiyasini ishlab chiqilayotgani hamda ushbu jarayonda Vokal san'ati. An'anaviy honanadalik yo'nalishi talabalarining 1-2 kurs talabalarini kuzatish hamda ularning faoliyatini tahlil qilishda kelingan hulosalar asosida yozilgan.

Qadimdan inson tarbiyasiga oid fikrlar xalq maqollarida, afsonalarda, dostonlarda o'z ifodasini topgan. Ularda rostgo'ylik. ota-onaga hurmat, ehtirom kabi fazilatlar tarannum etilgan. "Alpomish". "To'm aris" kabi doston va ertaklarda vatanparvarlik, insonparvarlik tuyg'ulari ulug'lanadi. Ta'lim va tarbiya masalalari hamisha mutafakkir, yozuvchi, olimlar xayolini band qilib kelgan. Ular o'zlarining bola tabiati. ularni barkamol shahs qilib tarbiyalash haqidagi yorqin mulohazalari bilan pedagogika fani ravnaqiga ulush qo'shganlar. M ashur hind masali "Kalila va Dimna", Nizomulmulknning "Siyosatnoma", Nosir Xisravning "Saodatnoma", 'Ro'shnoinoma". Y usuf xos Hojibning "Qutadg'u bilik". M ahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'atit turk", Ahmad Yugnakiy, Kaykovus, Alisher Navoiyning ko'pgina asarlari odob-axloqqa bevosita daxldordir. Bu allomalarning asarlari pedagogic fikrlarni

rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kun zamonaviy yondashuvda kompetensiya tushunchasi keng tarqalib har bir sohaning o'z kompetentligi mavjud. Hususan pedagogika sohasida ham pedagogic kompetensiya tushunchasi shakllanib bo'lgan. Har bir sohada bo'lgani kabi san'atning har javhasida hususan oliy ta'lim tizimida San'atshunoslik sohasida Vokal san'ati. An'anaviy honandalik yo'nalishi bo'lajak mutahasislarining umummilliy kompetensiyalarini rivojlantirish uchun mustqali izlanuvchi sifatida pedagogic texnologiyalarni ishlab chiqish izlanishlaridaman. Aslida kompetensiya nima? Uni shakllantiruvchi omillarga nimalar kiradi? Qanday hollarda kompetentlik yaqqol namoyon bo'ladi? Kompetensiyani rivojlanish bosqichlari qandav va uni qanday amalga oshirish kerak degan savollarga Vokal san'ati.



An'anaviy honandalik yo'nalishi misolida yechim qidiramiz.

Kompetentlik ko'pincha shaxsning ajralmas sifati sifatida tushuniladi, u o'rganish va ijtimoiylashuv jarayonida olingan bilim, ko'nikma va tajribaga asoslangan faoliyatga umumiy qobiliyat va tayyorlikda namoyon bo'ladi va mustaqil va muvaffaqiyatli faoliyatga yo'naltirilgan. Kompetentsiya - o'qituvchining o'quv tayyorgarligi normasi (talablari) bo'lib, u muayyan sohada muvaffaqiyatli faoliyat yuritish imkonini beradi. O'qituvchi kompetensiyasi uch qismdan iborat: umumiy madaniy, kasbiy va ijtimoiy kompetensiyalar.

Kompetentsiyaning yana bir muhim tarkibiy qismi hamkorlikdir. Bu talabalar va o'qituvchilarning birgalikdagi rivojlanish faoliyatining insonparvarlik g'oyasi bo'lib, o'zaro tushunish, ma'naviy dunyoga kirish, faoliyatning borishi va natijalarini jamoaviy tahlil qilish bilan muhrlangan. Ushbu holatda San'atshunoslik yo'nalishi Vokal san'ati. An'anaviy honandalik yo'nalishi bo'lajak mutahassislarining umummilliy kompetensiyalarini rivojlantirish birmuncha murakkabroq kechadi. Negaki Vokal san'ati. An'anaviy honandalik yo'nalishi bo'lajak mutahassislar sifatida ta'limni Ustoz shogird an'analari hamda ushbu sohaga talabalarning o'zlarining qiziqishlari va qobiliyatlarini birinchi darajaga olgan holda amalga oshiriladi. Vokal san'ati. An'anaviy honandalik yo'nalishi malaka talablarida keltirilgan Kasbiy kompetensiyalar:

- o'zbek maqom san'ati rivoji uchun ilmiy-nazariy tadqiqotlar olib borish, kasbga doir o'quv qo'llanma, uslubiy qo'llanma va darsliklar yarata olish, o'zbek maqom san'atini ommaviy axborot

vositalari va internet tarmoqlari orqali ko'plab mamlakatlarga keng targ'ib eta olish;

- maqom ansambli va boshqa jamoalarda faoliyat yuritayotgan vaqtda ta'lim jarayonida olgan barcha bilim va ko'nikmalardan unumli va sifatli foydalana olish;

- insonlarning estetik didi va tafakkurini shakllantirishda maqom san'atining keng

imkoniyatlaridan foydalana olish;

- maqomlar, mumtoz ashulalarni yakka xolda va xonandalar ansambli bilan hamnafaslik hamda jo'rovoqlikda o'rganib ijro eta olish;

- maqom asoslari, maqom tarixi, ijrochilari chuqur bilimga ega bo'lishi va ilmiy nazariy izlanishlar olib borish; maqomlarda ko'p uchraydigan aruz vazni, mumtoz she'riyat poetikasini chuqur tahlil qila olish; fors tilini o'rganishi, nafaqat muloqot uchun balki maqomlardagi forsiy so'zlar va atamalarni talqin eta olishi;

- me'yoriy-huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish va o'zlarining professional faoliyatlarida foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lish; maqom xonandaligi bo'yicha kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarini egallash va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olish;

- ijrochilik faoliyatida ijro etayotgan asarini ustozlarida olgan bilim, ko'nikma va malaksidan kelib chiqib, mukammal ijro eta olish;

- pedagogik faoliyati davomida sog'lom muhitni yarata olish, o'quvchilar bilan ijobiy muloqotni tashkil qila olish;

- axborot muhitida san'at sohasiga oid zarur, muhim, kerakli va foydali ma'lumotlarni izlash va bu ma'lumotlardan unumli va samarali foydalanish;



- ta'lim sifatini yaxshilash, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga doir yangi g'oyalarni ilgari surish, ularni amaliyotga samarali tatbiq qilish;

- madaniyat va san'at sohasidagi zamonaviy axborot tizimlaridan foydalangan holda ta'lim- jarayonlariga oid turli usul va texnologiyalarni ta'lim jarayoni sifat ko'rsatkichlariga ta'sirini hisobga olgan holda ishlab chiqishda ko'maklashish ega bo'lishi. Kabi kasbiy kompetensiyalar hamda pedagogic kompetensiyalarni umumlashuvi asosida Vokal san'ati. An'anaviy honanadalik umummilliy kompetensiyalarni ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

Ushbu sohada avvalo edagogik kompetensiya jarayonida Ustoz –shogird an'analarini alohida aytib o'tish va aynan ushbu so'zga kata urg'u berish lozim. Boshqa sohalardan farqli o'laroq Vokal san'ati. An'anaviy honanadalik yo'nalishi ummummilli urf odatlar, an'analar, nasriy qadryatlar, mmilliy madaniy merosimizning amalda mavjud dddurdonalari asosida tarbiyalanadi. Avvalo ushbu soha vakillari musiqiy merosimizning amaliy jihatlarini va shu bilan birga nazariy jihatlarini ustozlaridan eshitish, tushunish va o'zlarida amaliy tahlil qilish jarayoni orqali pedagogic ko'nikmalarga ega bo'ladilar. Biz san'atning qaysi bir sohasi bo'lmasin umumiy jihatni avval aniqlaymiz va shu jihatlarini talabaga singdiramiz. Demakki biz pedagogic kompetensiyaning rivojlantirish uchun tehnologiyalar ishlab chiqishda Vokal san'ati. An'anaviy honanadalik yo'nalishining san'atning boshqa bir sohalari bilan ham aloqasini tahlil qilamiz va tahlillar natijasini umumlashtiramiz. Thlilni Guliston davlat universiteti 1-hamda 2- kurs Vokal san'ati. An'anaviy


honanadalik ta'alabalarining o'qib o'rganish progresini o'rganamiz. Misol uchun; 1- kurs ta'alabalarda ilk kunlarda ushbu sohaning aynan qanday yo'nalishda ekanligini ham bilmasliklariga guvoh bo'lamiz. Ular Vokal san'ati. An'anaviy honanadalik yo'nalishi yoki Vokalist va yoki an'anaviy honanda tarbiyalaydi degan ikkilanishda bo'ladilar. Va holanki suhbu yo'nalish Vokal art ya'niki kuylashda, ashula ijro qilishda vocal qoidalari asosida an'anaviy honandalikni o'rganishadi hamda ushbu yo'nalishda izlanish olib brogan musiqashunos olimlar, ushbu sohaga san'ati bilan hissa qo'shgan buyun ustoz san'atkorlarning ijodi bilan ham tanishib boradilar. 1- kursning ikkinchi yarmida milliy mumtoz asarlarimizning bir muncha yengil, soda hususan bastakorlik ijodiga hos aytilmar, yallalar, musiqali dramalardan ariyalar, laparlarni ijro etishlari maqsadga muvofiqdir. Sababi talaba hali o'z imkoniyatlarini professional tarzda nialarga qodir ekanini bilmasligi va hozirgi yosh jihatidan 18-20 yoshdagi shaxs sifatida bazi hollarda ovoz o'sishi jarayoni ya'ni mutatsiyadan o'tmagan bo'lishi ehtimolidan holi emas. Avvaliga talabalar muntazam ovoz sozlash mashqlarini bajarishlari lozim. Sababiki ular ovozlarini har bir nota, cho'zim, takt usullarga bo'ysindirish ko'nikmasiga ega bo'lishlari lozim ana undan keyin ular 2- kursda Milliy qadryatlarimizni o'sida mujassam etgan maqom ashulalarimizdan ijro etishlari mumkin bo'ladi. Hususan "O'n ikki maqom" bugungi kunda "Shashmaqom' turkumidan, Farg'ona tssohkent, buhoro, Xorazm kabi hududlarning maqom turkumlaridan ijro etishlari, ijro etganda ham aynan ovoz diapazoni, nafas imkoniyatiga mos kichikro asarlardan boshlashlari lozim.



Bazi hollarda uztozlar talaba imkoniyatini bila turib unda ekserement o'tkazadilar, talabaga og'ir o'z hohishidan bo'lak juda kata turkum asarlarni beradilar. Bu holat talabada avvalo behohishlik, qo'rquv, ijroga nisbatan sovuqqonlik va eng yomoniki talaba ovozida buzulish paydo bo'ladi. Bu jarayonlarni ko'ryapmiz ham. Shunday jarayonlar sodir bo'lmasligi uchun "Pog'ona-qavatlar" (Stairs) nomli texnologiyani taklif etamiz. Bu pedagogik texnologiya Uncha uzoq bo'lmagan pedagogik tajriba va izlanishlar natijasi bo'lib bu jarayonda talaba (bo'lajak Vokal san'ati. An'anaviy honanadalik yo'nalishi

pedagogi) o'z qavatidan ya'ni o'z imkoniyatidan kelib chiqib pog'onalariga ko'tariladi. Stairs - bu texnologiya talabalarni tabaqalashtirmaydi aksincha ularni tabaqalashishdan ya'ni ustozlar tili bilan aytganda qobiliyatli, qobiliyatsiz tushunchasidan ancha uzoqda.

Ushbu texnologiya talabaga o'z ihtiyoridan kelib chiqib, o'zi hohlagan asarni ustozlar taqdim qilgan asarlar orasidan va yoki malaka talablariga mos asarlarni ijro etishi hamda ijro jarayonida o'z ovoz imkoniyatiga mos tonalnisdaa aytishi mumkin bo'ladi.



Yuqqoridagi diogramma homaki variant bo'lib ushbu texnologiya hali ishlanmoqda. Ammo ushbu texnologiya bugungi kun erkin fikrli qiziquvchan hamda electronlashgan zamonda yashayotgan yosh avlodlari hususan Vokal san'ati. An'anaviy honanadalik yo'nalishi

talabalarini muntazam kuzatish natijasida ishlab chiqilmoqda. Ushbu texnologiya Vokal san'ati. An'anaviy honanadalik yo'nalishining umummilliy kompetensiyalarini o'z ichiga olishi maqsad qilingan albatta.

References:

1. Pedagogik texnologiya N.Avliyakov, N.Musayeva
2. Amaliy pedagogika N. Erkaboyeva 2005



3. An'anaviy xonandalik o'quv qo'llanma I. M.
4. D.Uzoqov Vokal o'quv qo'llanma Toshkent 2020